



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Муратов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**FINTECH TEXNOLOGIYALARINING MOLIYA TIZIMI RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI
VA ISTIQBOLLARI**

**РОЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФИНТЕХ-ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ФИНАНСОВОЙ
СИСТЕМЫ**

**THE ROLE AND PROSPECTS OF FINTECH TECHNOLOGIES IN THE
DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL SYSTEM**

Mustafoyeva Zarnigor Azamat qizi

Navoiy Davlat Konchilik va Texnologiyalar universiteti assistenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada moliya sohasida FinTech (Financial Technology) texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari va ularning moliya tizimiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli to‘lov tizimlari, blokcheyn va sun’iy intellekt asosidagi moliyaviy xizmatlarning ahamiyati yoritilgan.

Shuningdek, FinTech texnologiyalarining moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, xizmatlar tezkorligini oshirish va operatsion xarajatlarni kamaytirishdagi roli ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari moliya tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar FinTech, raqamli moliya, blokcheyn, sun’iy intellekt, raqamli to‘lov tizimlari, moliyaviy inklyuziya, innovatsiya, kreditlash.

В данной статье анализируются тенденции развития технологий FinTech (Financial Technology) в финансовой сфере и их влияние на развитие финансовой системы. В исследовании рассматривается значение цифровых платежных систем, блокчейна и финансовых сервисов на основе искусственного интеллекта. Также показана роль FinTech-технологий в расширении финансовой инклюзии, повышении скорости обслуживания и снижении операционных затрат. Результаты исследования подтверждают, что внедрение инновационных технологий в финансовую систему способствует повышению экономической эффективности.

Ключевые слова: FinTech, цифровые финансы, блокчейн, искусственный интеллект, цифровые платежные системы, финансовая инклюзия, инновации, кредитование.

This article analyzes the development trends of FinTech (Financial Technology) and their impact on the financial system. The study highlights the importance of digital payment systems, blockchain technology, and financial services based on artificial intelligence. It also examines the role of FinTech technologies in expanding financial inclusion, improving service speed, and reducing operational costs. The results of the study confirm that the implementation of innovative technologies in the financial system increases economic efficiency.

Keywords: FinTech, digital finance, blockchain, artificial intelligence, digital payment systems, financial inclusion, innovation, lending.

Jahon moliya tizimida so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, an’anaviy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish usullari tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida FinTech texnologiyalari moliya bozorining ajralmas qismiga aylandi. FinTech – bu moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan zamonaviy tizim bo‘lib, u bank, sug‘urta, investitsiya va to‘lov xizmatlari sohasini qamrab oladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya sektorining samaradorligini oshirish, xizmatlar tezkorligini ta’minlash va mijozlarga qulaylik yaratish dolzarb

vazifaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, FinTech texnologiyalarini chuqur o‘rganish va ularning moliya tizimidagi o‘rni baholash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Fintex (moliyaviy texnologiyalar) bu moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishda zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan innovatsion tizimdir. Moliya tizimini tubdan o‘zgartirib, an’anaviy bank xizmatlarini raqamli, tezkor va arzon muqobillarga almashtirmoqda. U nafaqat bank operatsiyalarini avtomatlashtiradi, balki aholining moliya tizimiga kirish imkoniyatini (moliyaviy inklyuzivlikni) sezilarli darajada kengaytiradi. Fintex (moliyaviy texnologiyalar) moliya tizimida nafaqat yordamchi vosita, balki butun tizimni qayta shakllantiruvchi asosiy drayverga aylandi. 2026-yilga kelib, u an’anaviy bank tuzilmalarini raqamli va avtonom ekotizimlarga o‘zgartirishi kutilmoqda.

Fintex texnologiyalari moliya tizimini quyidagi yo‘nalishlar orqali rivojlantirmoqda:

Moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish: Moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish moliya tizimi samaradorligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda FinTech texnologiyalarining moliya tizimiga ta‘sirini o‘rganish uchun ilmiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlari tahlil qilindi. Shuningdek, statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish va tizimli tahlil usullari orqali FinTech texnologiyalarining moliyaviy inklyuziv, operatsion samaradorlik va xizmatlar sifati oshishiga ta‘siri baholandi. Tadqiqotda raqamli to‘lov tizimlari, blokcheyn texnologiyasi va sun‘iy intellekt asosidagi moliyaviy xizmatlar rivojlanish tendensiyalari ham o‘rganildi. Olingan natijalar asosida FinTech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi istiqbollari tahlil qilindi.

FinTech texnologiyalar an’anaviy moliya tizimini tubdan o‘zgartirib, xizmatlarni raqamli, tezkor va hamyonbop shaklga keltirmoqda. Fintech an’anaviy bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan aholi qatlamlariga (unbanked) mobil hamyonlar va raqamli to‘lovlar orqali moliya tizimiga kirish imkonini berdi. Sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish tufayli banklarning operatsion xarajatlari o‘rtacha 15% ga qisqardi. Kreditlarni baholashda Big Data va algoritmlardan foydalanish jarayonni tezlashtirdi va inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirdi.

Tranzaksiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta‘minlaydi. Jismoniy shaxslar va kichik biznes (SME) uchun an’anaviy bank to‘siqlarisiz tezkor moliyalashtirish manbalarini yaratdi. Click, Payme kabi platformalar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi.

Fintech startaplar an’anaviy banklarni o‘z biznes modellarini yangilashga majbur qilmoqda. Hozirda ko‘plab banklar o‘z ekotizimlarini yaratish uchun fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilmoqda. Tizimning kengayishi bilan kiberxavfsizlik, ma‘lumotlar maxfiyligi va regulyativ nazorat kabi yangi muammolar yuzaga keldi. Raqamli savodxonlikning yetishmasligi esa firibgarlik xavfini oshirishi mumkin. Shuningdek, raqamli platformalar orqali aholi va biznes subyektlari moliyaviy xizmatlardan kengroq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

1-jadval

To‘lov turi	Nomi	Asosiy afzalligi
Mobil hamyonlar	Click, Payme, Uzum Pay	Telefon orqali 24/7 tezkor o‘tkazmalar
Kontaktsiz to‘lovlar	NFC, Humo, Visa, Mastercard	Terminalga tegizish orqali tezkor to‘lov
QR-kodli to‘lovlar	Click, Uzum (savdo nuqtalarida)	Kartasiz va terminalsiz hisob-kitob
P2P o‘tkazmalar	Kartadan kartaga o‘tkazmalar	Jismoniy shaxslar-aro past komissiyasi transfer
Kriptoalyutalar	Bitcoin, Ethereum (Blokcheyn)	Markazlashmagan va xalqaro tranzaksiyalar

To‘lov turlari

Raqamli to‘lovlar naqd pulsiz hisob-kitoblarni tezlashtirib, iqtisodiy shaffoflikni ta‘minlaydi.

FinTech texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etish moliya tizimi uchun ulkan imkoniyatlar ochsa-da, bu jarayon bir qator murakkab va tizimli muammolar bilan to‘qnash kelmoqda.

FinTech rivojlanishi bilan kiberjinoatchilar uchun nishonlar ko‘lami ham kengaydi. Raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar soni ortgani sayin, fishing (phishing), zararli dasturlar va tizimga ruxsatsiz kirish holatlari ko‘paymoqda. Mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma‘lumotlarini himoya qilish eng dolzarb muammoga aylangan. Bitta yirik xakerlik hujumi nafaqat kompaniyaning moliyaviy yo‘qotishiga, balki butun raqamli moliya tizimiga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda, biroq davlat qonunchiligi ko‘pincha bu tezlikka moslasha olmaydi. Kriptovalyutalar, ochiq banking (Open Banking) va sun‘iy intellekt yordamida kredit berish kabi sohalarda huquqiy bo‘shliqlarning mavjudligi FinTech kompaniyalari uchun xavf tug‘diradi. Shuningdek, turli mamlakatlarda turlicha regulyatsiyalarning mavjudligi FinTech startaplarning xalqaro bozorga chiqishini qiyinlashtiradi.

FinTech texnologiyalari hamma uchun ochiq bo‘lishi kerak, biroq aholining barcha qatlamlari ham smartfonlar yoki murakkab moliyaviy ilovalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega emas. Ayniqsa, chekka hududlarda va katta yoshli aholi orasida raqamli savodxonlikning pastligi yangi texnologiyalar joriy etilishiga to‘sqinlik qiladi. Bu esa raqamli iqtisodiyotda tabaqalanishni (ayrimlarning foydalanishi, boshqalarning esa tizimdan chetda qolishi) keltirib chiqaradi.

Zamonaviy FinTech ekotizimini yaratish va uni doimiy yangilab turish uchun ulkan moliyaviy resurslar talab etiladi. Shu bilan birga, bozorda ham moliya, ham IT sohasini mukammal tushunadigan mutaxassislar yetishmaydi. Kuchli dasturchilar, ma‘lumotlar tahlilchilari va kiberxavfsizlik bo‘yicha ekspertlarni topish va ularni ushlab qolish FinTech kompaniyalari uchun katta muammo hisoblanadi.

Odamlar asrlar davomida pulni jismoniy shaklda ko‘rishga va bank binolariga borishga o‘rganib qolgan. Pulning butunlay "ko‘rinmas" raqamli shaklga o‘tishi ko‘pchilikda xavotir uyg‘otadi. Yangi va hali brend sifatida tanilmagan FinTech kompaniyalariga o‘z jamg‘armalarini ishonib topshirish mijozlar uchun psixologik jihatdan qiyin kechadi.

O‘zbekistonda FinTech va raqamli moliya tizimini rivojlantirish davlat darajasidagi strategik vazifa hisoblanib, u asosan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturi va Markaziy bankning rivojlanish strategiyalariga tayanadi.

Davlat FinTech startaplariga o‘z mahsulotlarini litsenziya olishdan oldin cheklangan muhitda sinab ko‘rish imkonini beruvchi maxsus rejimni joriy etdi. Bu innovatsiyalarni xavfsiz sinovdan o‘tkazish va qonunchilikni yangi texnologiyalarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Strategiyaning muhim qismi milliy to‘lov tizimlarini (Humo, Uzcard) xalqaro tizimlar (Visa, Mastercard) bilan integratsiya qilishdir. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan QR-kod yordamida to‘lovlarni standartlashtirish va masofaviy biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) tizimi keng joriy etilmoqda.

O‘zbekiston strategiyasi faqat an‘anaviy banklarni raqamlashtirish bilan cheklanmaydi. TBC Bank, Anorbank va Uzum kabi "faqat raqamli" (neobank) modellarni qo‘llab-quvvatlash orqali bozorda raqobatni oshirish ko‘zda tutilgan. Maqsad bank filialiga bormasdan 100% xizmatlarni smartfon orqali ko‘rsatishga erishish. O‘zbekiston Markaziy banki o‘zining raqamli valyutasini (Digital Soum) joriy etish ustida ishlamoqda. Bu tranzaksiyalar tezligini oshirish, davlat xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga qaratilgan strategik qadamdir. Strategiya banklar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvini (API orqali) ochiq qilishni nazarda tutadi. Bu mijozga bitta ilova orqali bir nechta bankdagi hisoblarini boshqarish va eng maqbul moliyaviy mahsulotlarni tanlash imkonini beradi. Raqamli o‘g‘riliklarning oldini olish uchun Markaziy bank qoshida CERT-CBU (Kiberxavfsizlik markazi) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. U real vaqt rejimida shubhali tranzaksiyalarni kuzatadi va tijorat banklari uchun majburiy xavfsizlik standartlarini belgilaydi. Shu sababli davlat va moliya institutlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, FinTech texnologiyalari moliya tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ular moliyaviy xizmatlarning tezkorligi va

qulayligini ta’minlab, bozor raqobatini kuchaytiradi hamda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelgusida FinTech texnologiyalarini rivojlantirish va ularni moliya tizimiga integratsiya qilish mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Fintex moliya tizimini reaktiv modeldan (mijoz so‘roviga javob berish) proaktiv va avtonom modelga o‘tkazmoqda. Fintex nafaqat texnik vosita, balki moliya tizimining yangi iqtisodiy modelini shakllantiruvchi drayverdir. Uning rivojlanishi foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratsa-da, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligi masalalarida yangi tartibga solish mexanizmlarini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079-son Farmoni. Toshkent, 2020.
2. Qodirov va Tursunov (2021/2025): “Moliya tizimi va axborot texnologiyalari” - axborot texnologiyalarining moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirishi va shaffofligini oshirishi tahlil qilingan.
3. Uzakov, U. A. (2025): “Raqamli to‘lovlar va elektron pul aylanishi: yangi iqtisodiy bosqich” — raqamli moliya xizmatlarining iqtisodiyotga ta’siri haqida.

UDK:339.13

RIVOJLANISH STRATEGIYALARIDA RAQOBAT VA HAMKORLIK O‘RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUV VA AMALIY TAHLIL

БАЛАНС МЕЖДУ КОНКУРЕНЦИЕЙ И СОТРУДНИЧЕСТВОМ В СТРАТЕГИЯХ РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

BALANCE BETWEEN COMPETITION AND COOPERATION IN DEVELOPMENT STRATEGIES: THEORETICAL APPROACH AND PRACTICAL ANALYSIS

Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasida dotsenti, (DSc)
ORCID: 0000-0002-3589-373X

Muradova Nazira Raximjanovna

Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasida katta o‘qituvchisi
ORCID: - 0009-0009-3383-8102

Annotatsiya

Mazkur maqolada rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot institutsional iqtisodiyot va strategik boshqaruv konsepsiyalari asosida olib borilib, turli mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan. Natijalar raqobat va hamkorlikning optimal uyg‘unligi innovatsion rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu asosda iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqobat, hamkorlik, rivojlanish strategiyasi, iqtisodiy rivojlanish, strategik boshqaruv, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik.

В данной статье анализируются вопросы баланса между конкуренцией и сотрудничеством в стратегиях развития. Исследование проводится на основе концепций институциональной экономики и стратегического управления, а также изучается опыт различных стран. Результаты показывают, что оптимальное сочетание конкуренции и